

**XALQARO JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA BMT NING
O'RNI VA AHAMIYATI**

Yahyoyev Javohir Bahodir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

*Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va amaliyoti magistratura
talabasi*

javohiryahyoyev760@gmail.com

+998900274880

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro jinoyatlar – genotsid, urush jinoyatlari, insoniyatga qarshi jinoyatlar va agressiya jinoyatlariga qarshi kurashda Birlashgan Millatlar Tashkilotining o'rni va faoliyati chuqur tahlil qilinadi. Xalqaro huquq doirasida adolatni ta'minlash, tinchlikni barqarorlashtirish hamda jinoyatchilikni kamaytirish yo'lida BMTning institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar yoritiladi. Xususan, Xalqaro jinoiy sud, BMT Xavfsizlik Kengashi, Inson huquqlari bo'yicha kengash kabi tuzilmalarning roli, ular tomonidan qabul qilingan rezolyutsiyalar va qarorlarning ijrosi tahlil etiladi. Shuningdek, mavjud muammolar va istiqbollar, shuningdek BMT tizimining takomillashtirilishi bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: Xalqaro jinoyatlar, BMT, Xavfsizlik Kengashi, Xalqaro jinoiy sud, inson huquqlari, genotsid, urush jinoyatlari, xalqaro huquq, adolat.

Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashish global muammo sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu boradagi tahdidlarning kuchayishi davlatlar o'rtasida yaqin hamkorlikni taqozo qilmoqda. Har doim bo'lgani kabi, jinoyatchilikka qarshi kurashish davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Yangi O'zbekiston sharoitida bu masala ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan va uni samarali amalga oshirish uchun tizimli choralar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham bu borada shunday degan: “Agar hammamiz birdek mas’uliyat bilan yondashib, oilalardagi muammolarni chuqur o‘rganib, ularni bartaraf etishda yordam berganimizda edi, jinoyatlarning oldi ancha erta olinardi. Afsuski, biz hali-hanuz jinoyatchilikka qarshi kurashishda eskicha yondashuvdan voz kecha olmayapmiz. Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar hanuzgacha natijalarni avvalgi davr bilan solishtirish orqali baholab kelmoqda. Aslida, bitta jinoyatning o‘zi ham hammamizni tashvishga solishi lozim”.

Bu fikrlar jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida yangicha tizimlarni joriy etish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash muhim masalaga aylandi. Ikkinchi jahon urushi asoratlari, insoniyatga qarshi qilingan jinoyatlar va xalqlarning genotsidlari xalqaro huquqiy mexanizmlarni yaratishga undadi. Ushbu vazifalarni bajarishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti muhim ro‘l o‘ynaydi. Mazkur maqolada xalqaro jinoyatlarga qarshi kurashda aynan BMTning ro‘li, faoliyati va huquqiy vositalari o‘rganiladi.

Xalqaro konvensiyalar va BMT rezolyutsiyalariga muvofiq, BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha tuzilmasi a’zo davlatlarda narkotik moddalar ustidan nazoratni kuchaytirish, transmilliy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi kurashishda ko‘maklashish, shuningdek jinoyat sud tizimini isloh qilish, terrorizm hamda odam savdosi kabi global muammolarning oldini olish kabi asosiy vazifalarni bajaradi.

Ushbu tashkilotning Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasi ayni paytda Toshkent shahrida faoliyat yuritmoqda. Ushbu idora mintaqadagi noqonuniy giyohvandlik vositalari savdosini kamaytirish, uyushgan jinoyatchilikka qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek terrorizmga oid jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirish va aholida xabardorlikni oshirishga xizmat qiluvchi dasturlarni olib bormoqda.

Tashkilotning boshqa mintaqaviy ofislari Bishkek (Qirg‘iziston), Dushanbe (Tojikiston), Ashxobod (Turkmaniston), Ostona va Olma-Ota (Qozog‘iston),

shuningdek Boku (Ozarbayjon) shaharlarida joylashgan.

Shuni ham aytish joizki, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida davlatlar o'rtasidagi hamkorlik masalalari bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (EKOSOS) shug'ullanadi. Ushbu tashkilot 1945-yil 26-iyunda BMT Nizomi asosida tashkil etilgan bo'lib, u xalqaro miqyosdagi iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni muhokama qilish hamda a'zo davlatlarga siyosiy tavsiyalar berish uchun asosiy forum hisoblanadi.

BMT Bosh Assambleyasi EKOSOS zimmasiga har besh yilda bir marta jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlarga nisbatan munosabat masalalari bo'yicha Kongresslarni tayyorlash vazifasini yuklagan. Bu Kongresslar jinoyatchilikni oldini olish va jinoyat adliyasiga doir xalqaro me'yor va standartlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Hozirgacha shunday 12 ta Kongress o'tkazilgan.

Shu bilan birga, BMT hamda boshqa xalqaro va hukumatlararo tashkilotlar jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish yo'lida faol hamkorlik olib bormoqda. Masalan, 2000-yil 15-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Uyushgan transmilliy jinoyatchilikka qarshi 55/25-sonli Konvensiya bunga yaqqol misoldir. Ushbu Konvensiyaning asosiy maqsadi – transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashda davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va samaradorligini oshirishdir.

O'zbekiston esa o'zining keng aholisi – taxminan 30 million kishilik demografik salohiyati bilan butun Markaziy Osiyo xavfsizligi va barqarorligiga sezilarli hissa qo'shib kelmoqda. 1993-yildan buyon BMTning mazkur tashkiloti O'zbekistonda bir qator ijtimoiy va xavfsizlikka oid loyihalarni amalga oshirib, ayniqsa yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda jinoyatchilik va ekstremistik tahdidlarning oldini olishga qaratilgan faoliyatni yuritmoqda.

Xalqaro konvensiyalar va BMT rezolyutsiyalariga muvofiq, BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha tuzilmasi a'zo davlatlarda narkotik moddalar ustidan nazoratni kuchaytirish, transmilliy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi kurashishda ko'maklashish, shuningdek jinoyat sud tizimini

isloh qilish, terrorizm hamda odam savdosi kabi global muammolarning oldini olish kabi asosiy vazifalarni bajaradi.

Ushbu tashkilotning Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasi ayni paytda Toshkent shahrida faoliyat yuritmoqda. Ushbu idora mintaqadagi noqonuniy giyohvandlik vositalari savdosini kamaytirish, uyushgan jinoyatchilikka qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek terrorizmga oid jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirish va aholida xabardorlikni oshirishga xizmat qiluvchi dasturlarni olib bormoqda.

Jinoyatchilikka qarshi kurash – bu jinoyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi omillarni yo'qotish, jinoyat sodir etilishining oldini olish, uni aniqlash, jinoyatchilarni topish, tergov qilish, adolatli sudlovni ta'minlash, jazoni o'tagan shaxslarni tuzatish va ularning keyinchalik jinoyatga qaytishining oldini olishga qaratilgan huquqiy, psixologik, iqtisodiy-siyosiy va tashkiliy choralar yig'indisidir.

Bu keng qamrovli tushuncha bo'lib, quyidagi asosiy funksiyalarni o'z ichiga oladi:

- jinoyatlarning oldini olish;
- jinoyatlarni tez va to'liq ochish;
- jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash;
- jinoyat sodir etib yashiringan yoki jazodan qochayotgan shaxslarni qidirib topish;
- jinoyatchilarni axloqan tuzatish;
- ularning yana jinoyat sodir etishining oldini olish va boshqalar.

Aytib o'tkanimizdek, jinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy vazifasi — jinoyatlarni to'xtatish, fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkini himoya qilish hamda ularning huquq va erkinliklarini cheklanishdan saqlashdan iborat.

Xalqaro jinoyatlar – bu butun insoniyat manfaatlariga qarshi qaratilgan og'ir huquqbuzarliklar bo'lib, ular xalqaro huquq doirasida jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Ular quyidagi toifalarga bo'linadi:

1. Genotsid – biron-bir etnik, irqiy, diniy guruhni butunlay yo'q qilishga qaratilgan harakatlar.

2. Insoniyatga qarshi jinoyatlar – keng ko‘lamdagi ta’qib, qatl, zo‘ravonlik harakatlari.

3. Urush jinoyatlari – qurolli mojarolar paytida xalqaro gumanitar huquqning buzilishi.

4. Agressiya jinoyatlari – bir davlat tomonidan ikkinchi davlatga qarshi qurolli tajovuz harakati.

Shuningdek, GPCT dasturi amalga oshirilgan o‘n yil davomida sezilarli natijalarga erishildi. Masalan, 2013-yilda 23 tonna kokain, 6 tonna kannabis, 1,2 tonna heroin, 60 tonna tramadol va 725 kilogramm fil suyagi musodara qilindi. Shuningdek, 119 ta konteynerda qalbaki mahsulotlar aniqlangan. Ushbu tashabbus doirasida portlarda nazoratni kuchaytirish maqsadida 30 dan ortiq tezkor nazorat bo‘linmalari tashkil etildi. Buning natijasida 100 tonna kokain, 3 million tonna heroin, 60 tonna kannabis va narkotik moddalar ishlab chiqarishda ishlatiladigan 1273 tonna kimyoviy prekursorlar, shuningdek noqonuniy sigaretlar, transport vositalari, dori-darmonlar, elektron chiqindilar, xavfli modda va yovvoyi hayvonlar kabi taqiqlangan mahsulotlar aniqlanib, musodara qilindi.

Bundan tashqari, “Markaziy Osiyo mintaqasi va Ozarbayjondagi prekursorlar ustidan nazorat qilish” loyihasi doirasida (umumiy qiymati 6 million AQSh dollari) 30 dan ortiq trening va turli uchrashuvlar tashkil etildi. Bu tadbirlarda mamlakatimizning turli soha vakillari bo‘lgan 220 dan ortiq mutaxassislar qatnashdi. Loyihadan ko‘zlangan yana bir maqsad – huquqni muhofaza qiluvchi organlarni kompyuter va laboratoriya uskunalari, transport, texnik vositalar va o‘quv materiallari bilan ta’minlashdan iborat bo‘ldi. Shu bilan birga, loyiha Afg‘onistonga kimyoviy prekursorlarning noqonuniy olib o‘tilishini oldini olish bo‘yicha milliy va mintaqaviy darajadagi operatsiyalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlamogda.

Shuningdek, Rossiya-NATO Kengashi doirasidagi “Markaziy Osiyo va Afg‘oniston Islom Respublikasi davlatlari huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarini narkotiklar bilan kurashish bo‘yicha malakasini oshirish” loyihasi (umumiy qiymati 2,14 million AQSh dollari) asosida ham faoliyat olib borilgan. Mazkur loyiha doirasida Domodedovo xalqaro o‘quv markazi, Toshkentdagi Oliy

harbiy bojxona instituti, Bishkek, Ashxobod va Anqaradagi TADOK akademiyasida jami 28 ta trening tashkil etilib, ularda O'zbekistonning tegishli idoralaridan 144 nafar mutaxassis qatnashdi.

BMTning eng muhim organi bo'lib, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qarorlar qabul qiladi. Ko'plab holatlarda xalqaro sudlarga ishlarni yuborish vakolatiga ega.

1998 yilda qabul qilingan Rim statutiga asosan tashkil etilgan. Bu sud xalqaro jinoyatlar bo'yicha shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortadi. XJS mustaqil sud organi bo'lib, BMT bilan hamkorlikda ishlaydi.

Inson huquqlari bo'yicha kengash-Bu tuzilma inson huquqlari buzilishi holatlarini monitoring qiladi, maxsus rezolyutsiyalar va hisobotlar orqali xalqaro jinoyatlarni fosh etadi.

Ko'plab jinoyatchilar xalqaro sudlarga tortildi. Xalqaro jinoyatlar bo'yicha huquqiy baza shakllandi. Inson huquqlari monitoringi kuchaytirildi.

Xulosa qilib aytganda, Xalqaro jinoyatlarga qarshi kurash – bu murakkab va doimiy jarayon bo'lib, unda BMT muhim institutsional vosita sifatida ishtirok etmoqda. BMTning Xavfsizlik Kengashi, Xalqaro jinoiy sudi va boshqa organlari orqali amalga oshirilayotgan faoliyat xalqaro adolat va tinchlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq, mavjud muammolar BMTning samaradorligini pasaytirayotgan omillardandir.¹

Shu sababli, BMT tizimini isloh qilish, uning vakolatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. Faqat shundagina xalqaro jinoyatlarga qarshi samarali kurash olib borish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rome Statute of the International Criminal Court, 1998.
2. Cassese, Antonio. International Criminal Law. Oxford University Press, 2008.

¹ Qodirov, S. Xalqaro huquq tizimidagi jinoyatga qarshi kurash tamoyillari. Toshkent: HUQUQ nashriyoti, 2020.

3. Schabas, William A. An Introduction to the International Criminal Court. Cambridge University Press, 2017.
4. Cryer, R., Friman, H., Robinson, D., & Wilmshurst, E. An Introduction to International Criminal Law and Procedure. Cambridge University Press, 2019.
5. Jalilov, M. Xalqaro huquq asoslari. Toshkent: Adolat nashriyoti, 2021.
6. BMT Xavfsizlik Kengashining rezolyutsiyalari: 827 (1993), 955 (1994), 1593 (2005), 1970 (2011).
7. BMT rasmiy veb-sayti: <https://www.un.org>
8. Xalqaro jinoiy sud rasmiy veb-sayti: <https://www.icc-cpi.int>
9. Qodirov, S. Xalqaro huquq tizimidagi jinoyatga qarshi kurash tamoyillari. Toshkent: HUQUQ nashriyoti, 2020.